

## ABDULLA AVLONIYNING MAKTAB VA ILMGA QO'SHGAN HISSASI

Azizova Sabina Fahriddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

3-kurs talabasi , +998 93 133 56 62

### Annotatsiya

Ushbu maqola Abdulla Avloniyning ilm uchun hech nimani ayamandan yoshlarga bilim berish, ularni bilim olish yo'lidagi qiyinchiliklari va maktabni rivojlantirishga oid hissasi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zi:** Maktab, bilim, tarbiya, odob -ahloq, fikr.

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniy Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan. U eski maktabda ta'lim oldi. U o'z tarjimai holida yozishicha: «12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda «Tarjimon» gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim».

Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etgan yosh pedagog o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Abdulla Avloniy maktablar uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912), «Tarix», «Turkiy guliston va axloq» (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan. 1895 yillardan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy «Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she'r, hikoya, fel'eton va kichik hajmli dramatic asarlar (1900—1917) yaratdi. Shoir o'z she'rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tandid qilar va kishilarni bilimga, ma'rifatga chaqirar edi. Abdulla Avloniy 1917 yilgacha mahalliy xalq vakillaridan yetishib chiqqan yirik jurnalist sifatida Toshkentda «Shuhrat», «Osiyo» kabi gazetalarni tashkil etadi. U «Advokatlik osonmi?», «Ikki muhabbat», «To'y», «S'ezd», «Laylo va Majnun», «O'liklar» kabi dramatik asarlarida jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojeali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarini fosh etadi.



Abdulla Avloniy shoir sifatida o'nlab, yuzlab she'rlar bitgan. Ular xoh eski urf-odatlar haqida bo'ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo'ladimi, hamma-hammasida inson va tarbiya, axloqiy go'zallik va ma'naviy boyluk haqida kuylaydi. Shuning uchun ham uning she'rlarida xalq didaktikasi bilan yangi zamon pedagogikasi uyg'unlashib ketadi. Jumladan, «O'z mamlakatimizda» she'rida maishat uchun pul-boylukni isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun ko'zi qiymagan xasislarni «Ilm uchun pulni ko'zlari qiymas»ligini qoralaydi. Yoki «Maktab» she'rida:

*Maktab misni tillo qilur,  
Maktab sizni mullo qilur,—*

deyish orqali maktab inson uchun zulm, nohaqlik, adolatsizlikdan xalos etuvchi, najot yo'li deb biladi. Ayniqsa, uning «Adabiyot» (1915) kitobi bu jihatdan alohida ajralib turadi.

*Xullas, A. Avloniy yozganidek:  
Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,  
Xanjar, olmosday bo'lur o'tkir.*

Abdulla Avloniy (1878-1934) o'tgan asrning boshlarida uyg'onish davri arboblari singari shoir, dramaturg, aktyor, tarjimon, musiqa yig'uvchi, jurnalist, Evropa ilg'or fan-texnikasi, madaniyati tarafdori sifatida bo'y ko'rsatdi. Uning yozma dramaturgiya va teatr san'atiga qo'shgan hissasi ho'qida talaygina ilmiy-ommabop maqola va asarlar e'lon qilingan bo'lsa-da, ammo ijodkorning musika san'atiga munosabati to'g'risida juda kam yozilgan. Holbuki, u barcha jadid ziyolilari kabi bu sohaga ham munosib ulush qo'shgan. Uning ikki jildlik «Tanlangan asarlar»iga kiritilgan she'rlari, maqolalari, pesalari shunday demoqqa asos beradi. Adib asarlari uning badiiy-estetik qarashlari nihoyatda yuksak bo'lganini, xususan, yoshlikdan musiqa san'atiga ixlos qo'yganini va bu ixlos ilk bor teatrchilik harakatiga aralasha boshlagan kezlarda avj olganini, ayniqsa, «Turon» truppasida faoliyat ko'rsatgan davrida kuchayganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, odamlar qadim-qadimda hayot va tabiat voqea-hodisalarini, atrof muhitda kechayotgan o'zgarishlar hamda jarayonlarni doimo o'zlarining hayotlariga qiyoslashgan. Tabiat go'zalligini asl holicha soddadillik bilan qabul qilishgan. Avloniy ilmiy adabiyotda «taqlidchilik davri», «xalq og'zaki ijodi davri» deb atalgan paytlarni tahlil etishda asosan to'g'ri yondashadi. U taqlid davrini quyidagicha ifodalaydi: «bahor mavsumlarida chechaklarning hajrida mast bo'lib



sayragan qushlarning yoqimli tovushlari hushlariga o'tirdida, onlar ham ixtiyorsiz ravishda shul qushlarga tovushlarini o'xshatmoq, go'yo qush kabi sayramoqchi bo'ldilar». Shoir bu misol bilan inson qalbida paydo bo'lgan go'zallikka, musiqaqa intilish, ijod qilish, o'ziga xos ohang yaratish mayini va bu mayilni tug'diruvchi musiqa va uning uyg'otuvchisi, fasllar kelinchagi bahor ekanini uqtiradi. Davrga ta'rif berib: «Ular ham nag'ma, ashula qila boshladilar. Mana shu davrni sanoyi' nafisaning adabiyot davri deyilur», - deydi.

*Avloniy inson ovozi - eng birinchi musiqa asbobi ekanligini va qadimgi kishilar «go'zallaridan, mahbubalaridan, borlaridan ajralganliklarini boshqa o'rtoqlariga ham ma'lum qilar edilar», deb qadim zamonlarda ishq-muhabbat, his-tuyg'ular bilan bog'liqligini aytib, lirik musiqaning paydo bo'lish sabablarini ochadi. Shuningdek u jo'ngina bo'lsa-da, ilk musiqa cholg'u asboblarining yaratilishi haqida ham taxminlar qiladi: «Daraxtlarning shoxlariga ilinib qolgan hayvonlarning ichaklarin havoning ta'siri bilan ko'rib, shamolning ta'siri bilan «ting'ir-ting'ir» qilgan tovushi ko'ngillariga o'turdi, xush keldi. O'zlarining ashula va qo'shiqlariga jo'r-jo'ravozlik qilmoq uchun hayvon ichaklaridan «tor» yasab, musiqiy asboblarin yuzaga chiqardilar», deb musiqa san'ati o'z taraqqiyotida yangi bir bosqichiga o'tganini ta'kidlaydi. «Bu san'atlari avvallariga qaraganda eng nafis, eng muhim, eng ruhlik bir san'at bo'lib chiqdi. Lekin onlar bu san'atlarni tekshiruv va qayg'iruv orqasida chiqordilarda, bizlarga yodgor o'laroq qoldirib, o'zlari ko'zdan nihon o'ldilar» deb, musiqani oddiy taqliddan ijod va chin badiiyot hosilasi darajasiga ko'tarilishini «nafis san'at» deb, uning yaratuvchilari-bastakorlar nom-nishonsiz o'tib ketganlarini uqtirmoqda. U davrni aniq ko'rsatishdan tiyilib, o'rta asrlar nafis san'atiga ishora qilar ekan, milliy musiqa bisotimizdagi o'adimiy «Sayra bulbul, sayra chinorni shoxi sinsun, yor ayrilaman dedi, ayrilib ko'ngli tinsun» deb boshlanuvchi xalq qo'shig'ini tilga oladi. Avloniy musiqa san'atining paydo bo'lishiga oid qisqagina maqolasida ko'pgina qiziqarli kuzatuvlarni keltiradi va asosan to'g'ri xulosalar chiqaradi. Musiqa ilk bor tabiatga oddiy taqliddan boshlanganligini, musiqa san'atining asosiy janrlarini, ya'ni mavsumiy, maishiy va lirik qo'shiqlarning kelib chiqishini eslatib qo'yadi. Musiqaga yurakdan berilgani bois yozgan «Musiqiy» sarlavhali she'rida musiqaning ta'sir kuch qudratini batafsil ifodalaydi.*

*Nag'ma sozingdir madori jism, qudsiy so'zlaring,  
Ruxbaxshodur sado qilganda, hijron ko'zlaring.*





Avloniy musiqani o'lik vujudga jon kirituvchi go'zal qiyofada tasvirlaydi. Musiqa sadosi insonning ruhini bo'ysundirib o'ziga muxlis qiladi, ming jonlarni o'ynatadi. Kimki umrida bir marotaba musiqa sadosini eshitsa, unga abadiy shaydo bo'lib qoladi. San'at inson qalbiga shodlik bag'ishlab, o'ziga asir qilib oladi.

Avloniy musiqa san'atini qanchalik chuqur idrok etganligini o'zining ko'pgina she'rlarini ommabop xalq qo'shiqlariga, maqom yo'llaridagi kuylarga, o'z davrida mashhur bo'lgan ozarbayjon operalaridagi ariyalarning kuylariga moslab yozganligidan bilishimiz mumkin. Masalan uning «Maktabga targ'ib» she'ri «Latifa» kuyi ohangida yozilgan. U ijrochilar qiynalmasligi uchun «Milliy kuylarimizdan biri «Og'ajon latifa, guliston latifa», «Shoxida o'ynang, bargida sayrang, bog' latifa»dur, deb matndan parcha keltiradi va «teatr va adabiyot kechalarinda sahnada yozilmish milliy she'rlardan bir bayt, bir yoki ikki kishi tarafidan o'qilub, so'ngidan ko'b kishilar tarafidan hur, sozlar ila jo'r qilub ikkinchi bayt o'qilur», deb ogohlantiradi hamda naqorat lozimligini uqtiradi.

*Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,*

*Hamma obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston. (O'sha joyda. 116-bet)*

O'z manfaatlarini ko'zlamasdan vatanini dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlar qatorida ko'rish orzusi bilan yashagan shoir madaniyat va san'at orqali har bir odamning yuragiga yo'l topa olish zarurligini tushungan va targ'ib etgan. Avloniy «Madaniyat to'lqinlari» maqolasida shunday yozadi: «Hozir yarim asrdurki madaniyat bizni orqamizdan quviyur. Biz qirdan-qirga qochurmiz, qarshimizda maishat mashaqqatlari chiqub hujum qilur, o'ngimizdan bilimsizlik va jaholat kelub jonlarimizni siqur, so'ngimizdan musriflik, faqirlik, bid'atlar chiqub yo'limizni to'sur». Bu holdan qutilish yo'lida «faqat birgina chorasi bordurki madaniyatni qabul qilmak va haqiqiy madaniyatga kirishmak lozim». Binobarin shoir ana shu madaniyatni barpo qilishda teatr va musiqaning o'rni va roli katta ekanini chuqur anglagan va uni xalq ongiga etkazishga intilgan. Uning san'at, xususan musiqa san'ati xaqidagi fikrlari, qarashlari ana shundan dalolatdir. Avloniy badiiy-estetik qarashlarini, musiqaga munosabatini bir maqola hajmida qamrab olish nihoyatda qiyin. Ammo ushbu muxtasar yondashuvning o'ziyoq adibning milliy ananaviy musiqa bilimdonlaridan hamda xazinabonlaridan biri bo'lgan deyishimizga to'liq asos beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

2. Dolimov, U. Abdulla Avloniy-milliy uyg'onish davri o'zbek pedagogikasining asoschisi.
3. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llamna. Toshkent- 2004.
4. Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. T., G 'afur G 'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1979.
5. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). Tarix fanini o'rganishda xvi-xviii asrlarda yaponiya davlati tarixini ahamiyati. *Scientific progress*, 1(6).
6. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). Tarix fanini o'qitishda ispaniya xv-xvii asrlardagi tarixi. *Scientific progress*, 1(6).
7. Khaitov, A. (2023). Integrated approach to teaching subjects of primary education. *European International Journal of Pedagogics*, 3(01), 34-41.
8. Зиёда Бахтияровна Муратходжаева. "Innovative technologies of teaching foreign languages". 2018. *Journal. Молодой ученый*. 5. Pages (82-184). Общество с ограниченной ответственностью Издательство Молодой ученый.
9. Bakhtiyarova, M. Z. (2021). INTEGRATED TEACHING OF PRIMARY EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1332-1336.